



SANAOAT KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TAMINLASH MEXANIZMLARI

Nomozov Qurbonali Fayzulla o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss1/649

Annotatsiya

Mazkur maqolada sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslariga qaratilgan masalalari hamda hozirgi globallashuv sharoitida sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari keng yoritilgan. Shuningdek sanoat korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda mavjud muammolarini huquqiy tahlil qilish orqali, korxonalarining iqtisodiy xavfsizlikni boshqarishda zamonaviy metod va usullarini ham ko'rib chiqishga qaratilgan. Shu bilan birga, sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan eng samarali strategiyalar va dasturlarni ishlab chiqish zarurligi ko'rsatilgan. Qolaversa, korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Sanoat korxonalari, iqtisodiy xavfsizlik, risklarni boshqarish, xatarlar, xavfsizlik strategiyalari, iqtisodiy barqarorlik, tashkilot xavfsizligi.

Аннотация

В статье подробно освещены вопросы, посвященные научно-теоретическим основам обеспечения экономической безопасности промышленных предприятий, а также особенности обеспечения экономической безопасности промышленных предприятий в современных условиях глобализации. Также ставится задача рассмотреть современные методы и способы управления экономической безопасностью предприятий посредством правового анализа существующих проблем в обеспечении социально-экономической безопасности промышленных предприятий. При этом подчеркивается необходимость разработки максимально эффективных стратегий и программ, направленных на обеспечение экономической безопасности промышленных предприятий. Кроме того, сделаны выводы и предложения по совершенствованию социально-экономического механизма обеспечения экономической безопасности предприятий.

Ключевые слова: промышленные предприятия, экономическая безопасность, управление рисками, опасности, стратегии безопасности, экономическая устойчивость, организационная безопасность.

Abstract

This article broadly covers the issues of scientific and theoretical foundations of ensuring the economic security of industrial enterprises and the specific features of ensuring the economic security of industrial enterprises in the current conditions of globalization. It also aims to consider modern methods and techniques for managing the economic security of enterprises through a legal analysis of the existing problems in ensuring the socio-economic security of industrial enterprises.

At the same time, the need to develop the most effective strategies and programs aimed at ensuring

the economic security of industrial enterprises is indicated. In addition, conclusions and proposals are given on improving the socio-economic mechanism for ensuring the economic security of enterprises.

Keywords: Industrial enterprises, economic security, risk management, hazards, security strategies, economic stability, organizational security.

Kirish

Sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligi murakkab, ko'p kirrali va keng qamrovli tushuncha bo'lib, sanoat korxonalar faoliyatining ichki va tashqi omillariga bog'liqdir.

Ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash har bir davlat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday xavfsizlikning dolzarbligi milliy iqtisodiyotning aholi uchun normal hayot kechirish sharoitlarini yaratishi, uni barqaror ravishda resurslar bilan ta'minlashi va milliy davlat manfaatlarini amalga oshira olish qobiliyati bilan belgilanadi. Ayniqsa, yosh mustaqil davlatlar iqtisodiyotining biryoqlamaligi va qaramligi, aholining past turmush darajasi o'zida ijtimoiy tahdidlarni aks ettirib, xavfsizlikni ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi.[1]

Hozirda kunda jahonning yetakchi mamlakatlarida sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning dolzarbligini bugungi hayotning o'zi ham taqozo qilmoqda. Negaki, korxonalarining iqtisodiy xavfsizligi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga doir qarorlarni qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy tizimdagi har qanday xavf-xatar va tahdidlar namoyon bo'lishi bilan birgalikda kechadi.

Xorijiy tajribaga qaraydigan bo'lsak, sanoat korxonalarida iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari ko'plab rivojlangan mamlakatlar uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Masalan, AQSH, Germaniya, Yaponiya, Rossiya kabi sanoat rivojlangan mamlakatlar o'zlarining sanoatdagi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda yuqori texnologiyalarni va ilg'or boshqaruv tizimlarini qo'llashadi. Turli xil iqtisodiy xavflarni oldini olish va sanoat korxonalarida xavfsiz ishlab chiqarish jarayonlarini yaratish orqali ularda korxonalarining ichki va tashqi xatarlarni o'z vaqtida o'rganish va tahlil qilish, ishlab chiqarishdagi har bir bosqichni monitoring qilish kabi usullar keng qo'llaniladi. Birgina Germaniyani olib qaraydigan bo'lsak sanoat xavfsizligi uchun «Industrie 4.0» kontseptsiyasi joriy etilgan bo'lib, bu sanoatni raqamlashtirish va ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali xavfsizlikni ta'minlash maqsad qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash hozirgi kunda dunyo davlatning iqtisodiy barqarorligini saqlash uchun muhim masalalardan biri hisoblanadi. Sanoat sektori nafaqat davlatning iqtisodiyotida, balki xalqning turmush farovonligi uchun ham asosiy omil hisoblanadi. Sanoat korxonalarining faoliyatini yanada samarali tashkil etish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash ichki va tashqi xavflardan himoya qilish nafaqat sanoat korxanasining mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi uchun zarurdir.

Bir nechta olimlar sanoat korxonalarida iqtisodiy xavfsizligi ta'minlash orqali sanoat korxonalarida faoliyatini modernizatsiya qilish, innovatsiyalarni joriy etish va xavfsizlikni ta'minlash alohida o'rin tutishi ta'riflaydi.

A.G. Porshnev, Z.P. Romyantseva va N.A. Salomatinning qarashlarida, iqtisodiy xavfsizlik ichki va tashqi muhitdagi o'zgarishlarga o'z vaqtida javob berishdan iborat bo'lib, bu sanoat korxonasidagi kelajakda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan iqtisodiy muammolarga yechim topishi mumkinligini ta'minlaydi deb takidlaydi [2].

L.P. Goncharenko takidlashicha, sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligi bu tahdidlarning oldini olish va korxonaning barqaror ishlashini ta'minlash uchun resurslardan samarali foydalanish holati sifatida talqin etiladi. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarning kombinatsiyasi bilan tavsiflanadi [3].

I.S.Xotamov, A.A.Yadgarov va M.K.Olimov Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'nalishlari nomli Monografiyasida tadqiq etilayotgan kategoriyaga shunday ta'rif bergan Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mazmun va mohiyatini yoritib berishdan oldin milliy xavfsizlik tushunchasiga to'xtalib o'tish kerak bo'ladi. Milliy xavfsizlik manfaatlarni himoyalashning umumiy shakli sifatida manfaat va ehtiyojlarni qondirish, moddiy, ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish va farovonlikka intilish to'g'risidagi barcha tasavvurlarni ifodalaydi [4].

X.F. Uktamov o'z maqolasida sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslarini yoritish orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilish sxemasi va korxonaning tashkiliy tuzilmasida iqtisodiy xavfsizlik xizmati tashkil qilish mexanizimi ishlab chiqilgan[5]

Iqtisodchi olimlarning sanoat tarmoqlarida iqtisodiy xavfsizlik xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarini tahlil qilish natijalari ko'rsatadiki, sanoat tarmoqlarining iqtisodiy xavfsizligini uch hil talqin qilish mumkin. Ya'ni tarmoqning iqtisodiy xavfsizligi bu: sanoat tarmog'ining barqaror rivojlanishini ta'minlashdir; sanoat tarmog'i iqtisodiy barkarorligining zaruriy shartidir; sanoat tarmog'ining ichki va tashqi xavflardan ximoyalalanish darajasidir. Shu munosabat bilan sanoat korxonalarini iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot davomida sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari o'rganildi. Tadqiqot davomida nazariy tahlil usulidan foydalanib, sanoat korxonalarini hamda iqtisodiy xavfsizlik tushunchalari va ularning mexanizmlari ilmiy adabiyotlar va xorijiy tajribalar asosida o'rganildi.


Asosiy ilmiy-nazariy tamoyillarni ishlab chiqishda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, monografik tadqiqot, taqqoslash kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil jarayonida kuzatuv metodi orqali korxonaning iqtisodiy xavfsizligining funksional elementlari aniqlangan, hamda korxonada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari aniqlangan. Abstrakt-mantiqiy fikrlash orqali tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Tahlil va natijalar

Sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligiga bo'ladigan tahdidlar korxonaga zarar yetkazishi va uning salohiyatini qisman yoki to'liq yo'qotishiga olib keladigan omillarning mavjudligi bilan bog'liq.

Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligi bilan bog'liq nazariy muammolar mavjudligini ko'rish mumkin. (1-rasm)



1-rasm. Sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligi bilan bog'liq nazariy muammolar [6].


Sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligi bilan bog'liq mazkur muammolar yechimi sifatida sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi alohida ahamiyatga ega. Bu mexanizmni korxonalarga joriy etish orqali sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga erishish mumkin.

Sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarining o'ziga xos xususiyatlarini ham hisobga olgan holda yondashish zarur. Bunday yondashish sanoat korxonalarini iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda a'lohida ahamiyatga ega. Xar qanday sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda sadoqatlilik tamoyilining muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tamoyilning asosiy mazmuni chuqur ma'noga ega bo'lgan bir qancha tadbirlarni qamrab oladi: iqtisodiy tejamkorlik, komplekslilik, bog'liqlik, loqaydlikka yo'l qo'ymaslik, ikkilanmaslik, loyihaviylik, tadbirkorlik, aniqlik, qonuniylik, uzluksizlik, sirlilik, ahillik, doimiylik hamda ochiqlik. Sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda ularning xavfsizlik modeli muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxonalar iqtisodiy xavfsizlik tizimi modeli quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi lozim:

- monitoring tizimi;
- xavfsizlik xizmati;
- ishlab chiqarish xizmati;
- qo'llab-quvvatlash xizmati;
- boshqaruv xizmati.

Belgilangan tadbirlar sadoqat bilan amalga oshirilsa, har qanday korxonaning, shu jumladan xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlarning ham iqtisodiy xavfsizligi to'liq ta'minlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.



2-rasm. 2020-2024-yillar oralig'idagi sanoat korxonolari sonini o'sish dinamikasi. (stat.uz sayti asosida muallif ishlanmasi)

Respublikamizda 2024-yil 1-noyabr holatiga ko'ra sanoat sohasida ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni 113 979 tani tashkil etgan bo'lsa ularning o'sish sur'ati 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,9% ga oshganini ko'rishimiz mumkin[7].

Xulosa va takliflar

O'zbekistonning 2030-yilga mo'ljallangan strategiyasiga asoslanib, sanoat sektori iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda eng asosiy e'tibor raqamli transformatsiyalarga, yangi texnologiyalarni joriy etishga va global iqtisodiy xatarlarni hisobga olgan holda xatarlarni boshqarish tizimlarini takomillashtirishga qaratilishi kerak. Bu jarayonda xalqaro tajribani o'rganish, zamonaviy boshqaruv modellari va texnologiyalarini qo'llash orqali sanoat korxonalarining xavfsizligini ta'minlashni yanada mustahkamlash mumkin.

Shunday qilib, sanoat korxonolari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, nafaqat ichki omillarga, balki tashqi iqtisodiy sharoitlarga ham bog'liqdir. Bu jarayonning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ilmiy asoslangan strategiyalar, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xalqaro tajribalarni o'rganish zarur bo'ladi.

Sanoat korxonolari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, ularga samarali risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlikni saqlash va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish orqali imkoniyatlar yaratadi. Ushbu masalalar to'g'risida amalga oshirilgan ilmiy tahlillar va amaliy takliflar sanoat korxonalariga o'z faoliyatini yanada barqaror va xavfsiz olib borishda yordam beradi. Sanoat korxonolari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning samarali strategiyalarini ishlab chiqish va joriy etish, uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Olmos Nurmuradov. (2024). Globallashuv sharoitida mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash masalalari. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 2(12), 15–20. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14629177>
2. A.G. Porshnev, Z.P. Romyantseva va N.A. Salomatin
3. Goncharenko L.P. The process of ensuring the economic security of the enterprise / L.P. Goncharenko//Handbook of the economist. - 2004.-AU 12. - S. 31-36.
4. Xotamov.I, Yadgarov.A, Olimov.M (2020) “Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish va iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash yo‘nalishlari”. Monografiya. TDIU. T. 2020 yil. –B.108.
5. Uktamov, X. (2023). Sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash mexanizmini takomillashtirish. *Iqtisodiyot va ta‘lim*, 24(3), 375–379. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss3/a59
6. Uktamov, X. (2023). Sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashning ilmiy-nazariy asoslari. *“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali*, 23(3), 269–276. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss3/i28
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti, stat.uz